

**MILLIY QADRIYATLAR VA MA'NAVİY MEROSENİNG JAMIYAT TARAQQIYOTIDAGI
AHAMİYATI**

*Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti
fors-ingliz guruhi 2- bosqich talabasi
Mustafoyeva Mushtariz Zohid qizi*

Annotatsiya: *Biz bilamizki, dunyoda o'ziga xos qadriyatlar bo'limgan xalq yo'q. Milliy qadriyatlar ular mansub bo'lgan xalqning tarixi, yashash tarzi, tili, urf- odatlari, ma'naviyati hamda madaniyati bilan uzviy bog'liq holda namoyon bo'ladi. ushbu maqolada ham milliy qadriyatlar va ma'naviy merosimizga alohida to'xtalib o'tilgan. Hamda milliy qadriyatlarimiz va ma'naviy merosimizni boyitish borasidagi keng ko'lamlı ishlarga ham urg'u berilgan.*

Kalit so'zlar: *Madaniy meros, milliy qadriyatlar, Yunesko, Abu Rayhon Beruniy, axloqiy qadriyatlar, ruhiy poklanish*

Jamiyat ma'naviyati mamlakat taraqqiyotining muhim sharti va kafolatidir. Shu narsa haqiqatki, biron- bir mamlakat o'z ma'naviy imkoniyatlariga tayanmay, odamlar ongi, tafakkurida ma'naviy va axloqiy qadriyatlarni rivojlantirmay, xalqning milliy ruhini uyg'otmay turib, yuksak taraqqiyot darajasiga ko'tarila olmaydi. Ma'naviyat insonni ruhiy poklanish va yuksalishga da'vat etadigan , uning ichki olamini boyitadigan, iymon irodasini, e'tiqodini mustahkamlaydigan vijdonini uyg'otadigan qudratli kuchdir. Tarixdan ma'lumki, mamlakatimiz bir necha bor ajnabi bosqinchilar hujmiga duchor bo'lgan, qaramlik va zulm ostida qolgan. Buning oqibatida xalqimizning boy ma'naviy merosi, urf-odatlari qadrsizlanishga mahkum bo'lgan. Ayniqsa, chor mustamlakachiligi va sovetlar tuzimi davrida milliy qadriyatlarimiz , urf- odatlarimiz, oyoqosti qilindi. Ona tilimiz , boy ma'naviy merosimiz qadrsizlantirildi, ko'plab masjid-u madrasalar, milliy maktablar , tarixiy yodgorliklar buzildi, qarovsiz qoldi. O'zbekiston mustaqilligini qo'lga kiritgan kundan boshlaboq mamlakatimizda boy ma'naviy merosimizni tiklash va rivojlantirish, jamiyat ma'naviyatini yuksaltirish davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Istiqlol tufayli milliy madaniyatimiz, jahon sivilizatsiyasi taraqqiyotiga beba ho hissa qo'shgan buyuk bobokalonlarimizning ma'naviy merosi qaytadan o'rganildi va tatbiq etildi. Ular qoldirgan boy ma'naviy meros hali-hanuzgacha biz yoshlarga qo'llanma va yo'llanma bo'lib xizmat qilmoqda. Dunyoda o'ziga xos qadriyatlar ular mansub bo'limgan xalq yo'q . Milliy qadriyatlar ular mansub bo'lgan xalqning tarixi, yashash tarzi, tili, urf-odatlari, ma'naviyati hamda madaniyati bilan uzviy bog'liq holda namoyon bo'ladi . Bizning milliy g'oyamiz milliy an'ana va qadriyatlarimizni o'zida aks ettiradi, ularni boyitish va rivojlantirishga xizmat qiladi. Allomalarimiz boy ma'naviy merosini o'rganish, ularni keng xalq ommasiga targ'ib qilish borasida ko'plab ishlar amalga oshirilmoqda xususan, O'zbekiston xalqining umummilliyligi boyligi hisoblanadigan madaniy merosimizni muhofaza qilish ilmiy o'rganish va

undan foydalanish borasida mamlakatimizda qator ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, Buxoro, Samarcand, Xiva va Shahrisabz shaharlarining tarixiy markazlari YUNESKO ning Umumjahon madaniy merosi ro'yhatiga, " Boysun madaniy muhiti ", " Shashmaqom musiqasi ", " Navro'z ", " Katta ashula ", " Askiya ", "Palov madaniyati va an'analari " nomzodlari insoniyat nommoddiy madaniy merosi reprezentativ ro'yhatiga, Usmon Qur'oni Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik insitutining qo'lyozmalar to'plami , shular jumlasidandir. Qadimi yozma manbalarni saqlash , tadqiq va targ'ib qilish tizimi yanada takomillashtirildi, Imom Termiziylar xalqaro ilmiy - tadqiqot markazi O'zbekiston respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida O'zbekistonga oid xorijdagi madaniy boyliklarni tadqiq etish markazi va O'zbekistondagi islom svilizatsiyasi markazi tashkil etildi. O'zbek xalqi xalq bo'lib shakllanibdiki, o'zidan boy madaniy meros qoldira oldi. Milliy qadriyatlar , shubhasiz, millatning ravnaqi yoki inqirozi bilan bevosa bog'liq bo'ladi. Boshqacha aytganimizda milliy qadriyatlar millatning o'tmishi va buguni bilan bog'liq . Shuning uchun ham, milliy qadriyatlar millat rivojlanishi bilan rivojlanadi, inqirozga uchrashi bilan qadrsizlanadi. Shuning uchun ham, millat- o'zining qadriyatlarini vujudga keltirib, ularning yangi - yangi qirralarini sayqallashtirib, boradi. Milliy qadriyatlarning negizini urf - odatlar, rasm-rusumlar, bayram-u sayillar tashkil etadi. O'zbek milliy qadriyatları mazmunida insonparvarlik g'oyalari yotadi.Uzoq tarix davomida o'zbeklarning o'zaro munosabatlarda, kundalik turmush tarzida o'zaro hamkorlik va hamdardlik , vafodorlik va o'zaro hurmat, bir-biriga suyanish va yaxshi qo'shnichilik, bolajonlik va ota - onaga hurmat , mehr- oqibat va sadoqat har tomonlama e'zozlanib kelinadi. Milliy qadriyatlar o'sha millatga mansub har bir kishi tomonidan yaratilgan, insoniylik, odamiylikka xos fazilatlar, xislatlar, xosiyatlarni milliy madaniy meros xazinasiga qo'shgan hissasini ifodalovchi buyuk ko'rsatkichdir. Zero, o'zbek xalqi milliy urf- odatlarni, ota- bobolarimiz qoldirgan boy merosni qadrlashadi. milliy qadriyat deganda men ko'pincha inson uchun kerakli, zarurli bo'lган narsa ko'z oldimga keladi. Kimlar uchundir ro'molcha ham milliy qadriyat hisoblanadi. Biz uchun oddiy bo'lib ko'ringan narsa boshqalarga qadrli buyum hisoblanadi. Bizni milliy qadriyatlarimizning o'ziga xos jihat shundaki, ularda qadim zamonlardan boshlab umuminsoniy g'oyalalar teran aks etadi. Masalan, xalqimizning mehr- oqibatni, do'stlik, tinchlik va hamjihatlikni yuksak qadrlashi, kim bo'lishi, qaysi millatga mansubligidan qat'i nazar birdek e'zozlashi tahsinga sazovordir. Xulosa qilib aytadigan bolsak, milliy merosimiz bizning ozligimizni , boy qadimiy tarixga ega ekanligimizni korsatib beradigan ajoyib qollanma va yollanma bo lib xizmat qiladi. .Ajdodlarimizdan qolgan madaniy merosni asrab — avaylash uni kelajak avlodga yetkazib berish biz yoshlarning vazifasidir Milliy qadriyatlar esa, har bir millatning oziga xos xususiyatlarini , xossalarni ifodalovchi falsafiy tushuncha bolib, osha millat bosib otgan ijtimoiy taraqqiyot jarayonida shakllangan milliy madaniy meros xazinasiga qoshgan hissasini, ulushini ifodalaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROYHATI:

- 1.Milliy istiqlol goyasi va manaviyat asoslari Manaviyat 2015
- 2.Uz.denemetr. com.Milliy istiqlol goyalarining tiklanishi va rivojlanishi
- 3.<https://elib.buxdu.uzcom.sayti>